

AMIR TEMURNING SIYOSIY QARASHLARI “TEMUR TUZUKLARI” TALQINIDA

Davlatmurodova Farangiz SHavkat qizi

Termiz davlat universiteti Pedagogika va Ijtimoiy ish fakulteti

Kutubxona va axborot faoliyati yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651896>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning siyosiy qarashlari “Temur tuzuklari” asari misolida tahlil qilinadi. Unda sarkarda davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi va adolatli soliq siyosatiga oid qarashlari yoritilgan. Shuningdek, tuzuklarda ilgari surilgan rahbarlik tamoyillari va harbiy strategiyalarga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqola Temur siyosiy tizimining markazlashgan boshqaruv, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy totuvlikka asoslanganligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Temur tuzuklari, siyosiy qarashlar, davlat boshqaruvi, adolat, rahbarlik.

Annotation. This article analyzes the political views of Amir Temur as reflected in the work "Temur Tuzuklari" (Code of Temur). It highlights his perspectives on state governance, the rule of law, and fair tax policy.

Special attention is given to the leadership principles and military strategies outlined in the code. The study demonstrates that Temur’s political system was based on centralized administration, economic stability, and social harmony. The article concludes that the Tuzuklari serves as a foundational text for understanding medieval statecraft in Central Asia.

Keywords: Temur Tuzuklari, political views, state governance, justice, leadership.

Аннотация. В данной статье анализируются политические взгляды Амира Темура в интерпретации «Записей Темура» (Темур тузуклари). Освещаются его взгляды на государственное управление, верховенство закона и справедливую налоговую политику.

Особое внимание уделяется принципам руководства и военным стратегиям, изложенным в своде законов. Исследование показывает, что политическая система Темура основывалась на централизованном управлении, экономической стабильности и социальной гармонии. В статье делается вывод о том, что «Темур тузуклари» является основополагающим текстом для понимания средневекового государственного управления в Центральной Азии.

Ключевые слова: Темур тузуклари, политические взгляды, государственное управление, справедливость, лидерство.

Kirish

Amir Temur (1336–1405) nafaqat buyuk sarkarda, balki o‘z davrining yetuk davlat arbobi va islohotchisi sifatida tarixda qoldi. U yaratgan ulkan imperiyani boshqarish uchun aniq siyosiy va huquqiy asos zarur edi. Aynan shu ehtiyoj “Temur tuzuklari”ning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Ushbu asar Temurning hayotiy tajribasi, siyosiy donishmandligi va rahbarlik falsafasining ifodasidir. Tuzuklar nafaqat harbiy ko‘rsatmalar, balki mukammal davlat boshqaruvi qoidalari majmuasidir. Maqolada aynan shu qoidalar tahlil qilinib, Temurning siyosiy qarashlari “Tuzuklar” talqinida yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

“Temur tuzuklari” yuzasidan ilmiy adabiyotlar ancha keng. Akademik Ibrohim Mo‘minov o‘zining “Amir Temurning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari” asarida tuzuklarni marksistik-g‘oyalar prizmasidan tahlil qilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining keyingi tadqiqotlari

(B. Ahmedov, H. Bobobekov) asarni sharqshunoslik va huquqshunoslik nuqtai nazaridan o'rgangan. Sharqshunos olim A. U. Xalimov "Temur tuzuklari"ning qo'lyozma variantlarini qiyosiy tahlil qilib, asarning asliyligi va unga keyingi asrlarda qo'shilgan qismlar haqida qimmatli xulosalar bergan. G'arb olimlaridan H. R. Rumer (2000) Temur qoidalarini Makiavelli tamoyillari bilan solishtirgan. Metodologiya jihatidan ushbu maqolada tarixiy-qiyosiy, tizimli va hermeneutik tahlil usullari qo'llaniladi. Tarixiy-qiyosiy usul orqali Temur qarashlari o'z davrining boshqa hukmdorlari (masalan, Chingizxon "Yasog'i") bilan solishtiriladi. Tizimli tahlil orqali "Tuzuklar"ning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy qismlari bir butun sifatida o'rganiladi. Hermeneutik usul esa matn mazmunini o'sha davr sotsial-madaniy kontekstida tushunish imkonini beradi. Maqolada asosan N. Yo'ldoshev va S. Mirziyoyeva tahriridagi 2016 yilgi "Temur tuzuklari" akademik nashri asos qilib olingan. Tahlil davomida 12 ta bobning har biri siyosiy qarashlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Natijada Temur siyosiy tizimining 5 asosiy tamoyili: adolat, maslahat, mehnatsevarlik, jazo va mukofot birligi, hamda bilimga hurmat aniqlandi. Temur tuzuklari - Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi tarixiy asar.

„Tuzuki Temuriy“, „Tuzukoti Temur“, „Malfuzoti Temuriy“ va „Voqioti Temuriy“ nomlari bilan ham atalgan[1]. Amir Temurning „Tuzuklar“ muallifi ekanligini e'tirof etadigan olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bular orasida „Temur tuzuklari“ning inglizcha tarjimonlari va noshirlari Devi va Uaytlar, mashhur turk qomusiy olimi Shamsuddin Somiy, qo'lyozmalarining yirik tadqiqotchisi Nikolay Mikluxo-Maklaylar ham bor. Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, asar 16–17-asrlarda Hindistonda yozilgan.

Ikkinchi qism mashhur Jahongirning farzandlariga atalgan o'ziga xos vasiyat, pandnasihatlari va o'gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarning tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliklarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo'sini va boshqa xususida gap boradi. Asar Amir Temur davridagi o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

„Temur tuzuklari“ning fanda qayd etilgan ilk nusxasi eski o'zbek tilida bitilganligi ma'lum. Bu usmoniy turk hokimlaridan biri - Yaman hokimi Ja'far Posho (hukmronlik yillari 1607-1612)ning kutubxonasidagi turkiy tilda yozilgan asar bilan bog'liq. „Tuzuki Temuriy“ning so'z boshida keltirilishicha, O'rta Osiyolik Mir Abu Tolib Husayniy al-Ariziy at-Turbatiy Makkai mukarrama va Madinai munavvaraga haj qilgan vaqtida asarni o'qishga muyassar bo'lgan va 1610-yil Ja'far Poshoning topshirig'i bilan uni fors tiliga o'g'irgan. Bizgacha ana shu forsiy nusxa tosh bosmalar, zamonaviy nashrlar va qo'lyozmalar shaklida yetib kelgan.

Husayniy Turbatiy forscha tarjimini 1637-yil boburiy hukmdor Shoh Jahonga (1628-57) tortiq qilgan. Shoh Jahon tarjima bilan tanishib chiqib, unda ayrim noanikliklar va kamchiliklar topgan hamda yirik olim, Dekan viloyatining qozikaloni Muhammad Ashraf Buxoriy (vafoti 1652-yil) huzuriga chaqirtirib, mazkur tarjimini mo'tabar asarlar, xususan, Sharafuddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“si va shunga o'xshash muhim manbalarga solishtirib chiqish va shu yo'l bilan tarjimadagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilishni topshirgan.

Muhammad Ashraf Buxoriy ko'rsatmaga ko'ra, Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy nusxasini diqqat bilan tahrir qilgan. Shu zaylda asarning yangi, to'ldirilgan tahriri vujudga keladi va u „Malfuzoti Temuriy“ („Temurning aytganlari“) va „Voqoti Temuriy“ („Temurning boshidan kechirganlari“) nomi bilan taniladi.

Keyinchalik undan ko'plab nusxalar ko'chirilgani ma'lum.

Ma'lum bo'ladiki, Boburiylar saltanatida „Temur tuzuklari“ asosida ikkita mustaqil asar vujudga kelgan va ularning keyingi asrlarda tarqalishi bilan bog'liq o'ziga xos tafsilotlar bor.

„Temur tuzuklari“ nusxasini dastlab Hindistonda yashagan ingliz zobiti mayor Devi 1779-yilda Angliyaga olib kelgan. So'ngra arab tili professor ingliz mayori Uaytga uni ko'rib chiqish uchun topshirgan. Uayt „Temur tuzuklari“ning forscha matnini nashrga tayyorlagan, mayor Devi esa uni inglizchaga o'g'irgan va ko'rsatkich, izohlar bilan ta'minlagan.

Asar matni va inglizcha tarjimasi 1783-yilda Buyuk Britaniyaning Oksford shahrida nashr etilgan. Aynan shu nashr dunyo mamlakatlariga keng tarqalgan va „Tuzuki Temur“ yoki „Tuzukoti Temur“ nomi bilan shuxrat topgan. Oksford nashri keyinchalik hech bir o'zgarishsiz, jahonning ko'plab shaharlarida, masalan, 1785-yil Kalkutta, 1868, 1963 va 1992-yillarda Tehron, 1890-yil Bombeyda chop etilgan. Bu nashrlar ko'plab mamlakatlarga, jumladan, O'rta Osiyoga ham tarqalgan. Uayt va Devi nashr etgan forscha matndan taniqli sharqshunos L. Langlening fransuz tiliga o'g'irgan tarjimasi 1787-yil Parijda nashr qilindi.

Temur tuzuklari“ning Devi va Uayt nashri asosida chiqarilgan toshbosma va keyingi nashrlaridan biri asosida Alixonto'ra Sog'uniy 1967-yil Toshkentda „Tuzuki Temuriy“ni o'zbek tiliga tarjima qilgan va „Guliston“ jurnalida tarjimaning faqat 30 foizi e'lon etilgan. Asar to'liq chop etilmaganligining sababi va 1989-yil o'zbek tiliga qilingan yana bir tarjima xususida akademik B. Ahmedov quyidagicha fikr bildirgan: "...O'sha vaqtda jamiyatimizdagi mavjud ahvol, aniqrog'i rasmiy hokimiyat ma'murlarining o'tmish tariximizni o'rganishga bo'lgan yomon munosabati natijasida Alixonto'ra Sog'uniy tarjimasi to'la tarzda bosilib chiqmadi.

Yana shuni ham qayd etmoq lozimki, tarjimaning bosilgan qismi ba'zi kamchiliklardan ham xoli emas edi. Unda, mas., ayrim jumlalarning tashlab ketilgani aniklangan, asl matndan chetga chiqish hollari mavjud; kishi nomlari, jo'g'rofiy atamalarda va istilohlarda g'alatliklar bor.

Muhim tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, jo'g'rofiy va etnik nomlar, turli atamalar va ularning sharhlari erkin talqin etilgan. 1989-yilda Alixonto'raning o'sha nashrini „Tuzuki Temur“ ning Bombeyda chop etilgan forscha matniga solishtirgan holda o'zbek tilida yana bir tarjima amalga oshirildi. Uni o'zbek sharqshunosi Habibulla Karomatov hozirlab, oldin „Sharq yulduzi“ jurnalida (Toshkent, 1989, 8son), so'ngra alohida kitob holida (1991) G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida nashr ettirdi". Mazkur nashrni tayyorlashda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 1785-yil Kalkutta, 1868-yil Tehron va 1890-yil Bombey nashrlari Alixonto'ra Sog'uniy tarjimasi bilan solishtirilgan. Tarjima matni forsiy asliyatdan ancha farqlangani bois Bombey nashri asosida qaytadan o'zbek tiliga o'g'irilgan va og'ir qatag'on davrida o'zbek xalqiga Amir Temur to'g'risidagi haqiqatni yetkazishga intilgan Alixonto'ra Sog'uniy nomlari hurmat yuzasidan yangi tarjimada lo'ringa qo'yilgan. Bu bilan, 1967-yilda boshlangan xayrli ishni nihoyasiga yetkazib, marhum domlaning ruhi poklarini shod etish maqsadi ko'zlangan.

Asarning „Sharq yulduzi“ jurnalida chop etilgan tarjimasi asosida 1991-yil Boku va Olmaotada ham „Temur tuzuklari“ning qozoq va ozarbayjon tillaridagi tarjima kitoblari nashr etildi. 1996-yil asarning yangi tarjimasi qayta o'zbek tilida chop etildi.

Xulosa

„Temur tuzuklari“ Amir Temurning siyosiy qarashlari adolat va qonun ustuvorligiga asoslanganligini ko'rsatadi. Temur davlatni bir oila, raiyatni esa o'z farzandlari deb bilgan holda, maslahat va shura asosida boshqarishni afzal ko'rgan.

U tuzuklarida markaziy hokimiyatni kuchaytirish bilan birga mahalliy boshqaruv organlariga muxtoriyat berishning o'ziga xos modelini yaratgan. Xulosa qilib aytganda, Temurning siyosiy merosi bugungi O'zbekistonda davlat qurilishi va rahbarlik tamoyillarini ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. "Tuzuklar"da ifodalangan g'oyalar o'z davri uchun ilg'or bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur tuzuklari Amir Temur; N. Yo'ldoshev, S. Mirziyeva tahriri ostida. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 176 b.
2. Mo'minov I. Amir Temurning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari. - Toshkent: Fan, 1973. - 204 b.
3. Ahmedov B. Amir Temur: tarixiy-portret va meros. - Toshkent: O'qituvchi, 1996. - 288 b.
4. Bobobekov H. Temur tuzuklarining huquqiy tahlili O'zbekiston huquqshunosligi jurnali. - 2005. - №2. - B. 34-41.
5. Xalimov A. U. "Temur tuzuklari" qo'lyozmalari va ularning qiyosiy tahlili Sharqshunoslik. - 2010. - №4. - B. 52-60.
6. Rumer H. R. The Central Asian Empire of Tamerlane: Military and Political Legacy Central Asian Survey. - 2000. - Vol. 19, №3-4. - P. 345-367.
7. Manz B. F. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. - 227 p.
8. Qodirov A. Temur tuzuklari va zamonaviy boshqaruv Ijtimoiy fikr. - 2018. - №1. - B. 68-73.